

QADIMGI MISRNING OHIRGI SAHIFALARI: SO'NGI PODSHOLIK DAVRIDA MISR

Ismonaliyev Fazliddin Farxodbek o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
"Tarix" yo'nalishi I bosqich
aliyevfazliddin630@gmail.com
+998507120137

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Misr tarixidagi so'nggi podsholik davri — mil. avv. XI–VIII asrlar oralig'ida hukmronlik qilgan XXI–XXV sulolalar davri tahlil qilinadi. Maqolada siyosiy jarayonlar, mahalliy hokimiyatning kuchayishi, Liviya va Nubiya sulolalarining siyosiy ta'siri, Amon ruhoniylarining mavqei, shuningdek, bu davrni inqirozga olib kelgan ichki va tashqi omillar yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — so'nggi podsholik davrining tarixiy jarayonlari, uning Misr madaniyati va davlat tuzumiga ta'sirini ilmiy asosda ko'rsatishdan.

Kalit so'zlar: So'nggi podsholik davri, XXI sulola, XXII sulola, XXV sulola, Liviya sulolalari, Nubiya hukmdorlari, Amon ruhoniylari, Tanis, Fivlar, Misr tarixi, qadimgi davlatlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется последний царский период в истории Египта – период XXI–XXV династий, правивший в XI–VIII веках до н. э. В статье рассматриваются политические процессы, укрепление местной власти, политическое влияние ливийских и нубийских династий, положение жрецов Амона, а также внутренние и внешние факторы, приведшие к кризису этого периода. Основная цель исследования – научно обосновать исторические процессы последнего царского периода, его влияние на египетскую культуру и государственное устройство.

Ключевые слова: Последний царский период, XXI династия, XXII династия, XXV династия, ливийские династии, нубийские правители, жрецы Амона, Танис, Фивы, история Египта, древние государства.

ANNOTATION

This article analyzes the last royal period in the history of Egypt - the period of the XXI-XXV dynasties, which ruled between the XI-VIII centuries BC. The article covers political processes, the strengthening of local power, the political influence of the Libyan and Nubian dynasties, the position of the priests of Amon, as well as internal and external factors that led to the crisis of this period. The main goal of the study is to scientifically demonstrate the historical processes of the last royal period, its impact on

Egyptian culture and state structure.

Keywords: The last royal period, the XXI dynasty, the XXII dynasty, the XXV dynasty, Libyan dynasties, Nubian rulers, priests of Amon, Tanis, Thebes, Egyptian history, ancient states.

KIRISH. Qadimgi Misr tarixi bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, ulardan biri — so‘nggi podsholik davri (mil. avv. XI–VIII asrlar) muhim o‘rin tutadi. Bu davr “Uchinchi oraliq davr” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, markazlashgan davlatning parchalanishi, mahalliy hokimlarning mustaqillashuvi, chet ellik sulolalarning hukmronligi, ruhoniylarning siyosiy kuchga aylanishi bilan xarakterlanadi. XX–XXI sulolalar inqirozidan keyin Misr siyosiy maydoniga yangi — Liviya va Nubiya kelib chiqishiga mansub hukmdorlar kirib keldi. So‘nggi podsholik davri ayniqsa Tanis shahrida hukmronlik qilgan XXI sulola, Bubastisdan kelib chiqqan Liviya XXII sulolasi hamda Nubiya hukmdorlari asos solgan XXV sulola bilan tarixda alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda Misr tashqi bosqinlar — Ossuriya tahdidi bilan yuzma-yuz keladi va bu holatlar davlatning siyosiy va madaniy o‘zgarishlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada ushbu davrning asosiy siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlari ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM. Sais Quyi Misrning yink nomlaridan biri bo‘lib, bu shahar deltaning g‘arbiy qismida joylashgan. Atrofida botqoq bilan o‘ralgan Sais da 665-yildan boshlab, Psammetix hokimlik qilgan. Psammetix (mil. avv 656-610-yillar) Tefnaxt avlodidan bo‘lib, livivalik urug‘idan chiqqan. U Ashshurbanipalning yordamida ko‘rgan va ossuriyaliklarning sodiq ittifoqchisi bo‘lgan Psammetix butun Misrni o‘z qo‘l ostiga birlashtirib, yangi XXVI sulolaga asos solgan. Bu sulola davrida Misr yangidan ravnaq topgan. Biroq, bu Misr davlati va madaniyatining so‘nggi marta, lekin kuchsizroq rivoj topgan davri edi. Psammetix I ning hokimiyatini kuchayishiga qarshi Ossuriya podsholari katta sonli qo‘shin to‘play olmagan. Shu sababli Sais Kichik Osiyo va yunonlardan yollangan askarlarga tayanib ish ko‘rishga majbur bo‘lganlar. Yunon tarixchisi Gerodot yunon savdogarlari, yo‘llanma askarlaming Misrga kirib borganligi masalasiga Sais fir‘avnlarning Yunonistonga moyilligi va o‘sha zamonda misrliklar bilan yunonlar o‘rtasida juda yaqin aloqa bo‘lganligiga katta e’tibor beradi. Psammetix I taxtga o‘tirgandan so‘ng, yunon yollanma askarlari va savdogarlariga tayanishga urinadi. Yunonlarning Navkratisdagi savdo koloniyalariga katta-katta imtiyozlar va yengilliklar beradi. Sais fir‘avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar Misr kohinlari va yunon savdogarlari bilan muvozanatda muntazam munosabatni yo‘lga qo‘yadilar. Ular Misring nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, haligacha ham ba’zi bir mustaqillikka ega bo‘lishni da’vo qilib kelayotgan ko‘p hokimlarga qarshi kurash olib bordilar. Psammetix I Fiva kohinlarini o‘ziga bo‘ysundirib olish uchun o‘z qizi Neytikertni Amonning oliy kohini Shepenopet II

(«xudoning qallig'i»)ga qiz qilib beradi, to'g'rirog'i Shepenopet II ni shunga majbur qiladi. Bu ma'lumot alohida hujjatga yozilgan bo'lib, bizgacha aniq saqlangan. Psammetix I tushkunlikka yuz tutib borayotgan Ossuriyani qo'llashga harakat qilgan. Chunki Psammetix I ning hokimiyatini kuchayishiga Ossuriya podsholari katta yordam qilgan edilar. Shuning uchun ham Psammetix I Ossuriya davlatining yashab turishidan manfaatdor bo'lgan [1. Internet sayti.].

Misrning so'nggi podshohlik davri miloddan avvalgi 664-yilda, 26-sulolaning birinchi hukmdori Psammetix I taxtga o'tirishi bilan boshlandi. Psammetix I dastlab Ossuriya bilan ittifoq tuzib, Ossuriyalik Asurbanipal tomonidan Misr hukmdori sifatida tan olindi. Ammo u tez orada mustaqil siyosat olib borib, butun Misrni birlashtirdi. Yunon yo'llanma askarlarini jalb qilish orqali Misr harbiy kuchini mustahkamladi va mamlakatni tashqi hujumlardan himoya qila oldi. Psammetix I zamonaviylashtirish islohotlarini amalga oshirdi va Misr madaniyatini jonlantirishga hissa qo'shdi, bu davrda qadimgi diniy an'analar va amaliyotlar qayta tiklandi [2. B. 398-390.]. Mil. avv. VII asrning o'rtalarida Sais nomarlari (Quy Misr) Misrni birlashtirishga kirishdilar. Sais shahri Nil deltasning yirik nomlaridan biri edi. Dastlab, Psammetix I (misrcha Psamtik) efioplar sulolasiga qarshi kurashda ossuriyaliklardan foydalanadi. Hatto, Ossuriya podshosi Asarxaddonga ham xizmat qilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Sais nomligida taxminan mil.avv 665-yildan boshlab Psammetix I hokimlik qiladi. Psammetix I (mil. avv. 655-610- yy) asli liviyalik zodagonlardan edi. U dastlab efioplarga qarshi Ossuriyaning yordamiga tayanadi. Chunki yangi podsho Ossuriya podshosi Ashshurbanipalning tarafdorlaridan biri edi. Aynan u Misr tarixida 26 – sulolaga asos soladi va mamlakatni qaramlikdan olib chiqadi. Mil. avv. 653-yilga kelib, Lidiya podshosining yordamida Misr suverenitetini qayta tiklaydi va Sais shahrini mamlakat poytaxtiga aylantiradi. Sais sulolasining yorqin vakili fir'avn Nexo II (misrcha Nexao) skiflar hujumidan xavfsirab, parchalanib borayotgan Ossuriyani qutqarib qolishga intildi. Ossur podshosi Ashshur-ubalit II bilan Karxemish shahri yonida birlashishga kelishib oladi. Quddus (Ierusalim) shahridan Yahudiy podshosi Iosiya unga qarshi chiqadi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab halok bo'ladi. Fir'avn yahudiylar dushmanlari hisoblangan ossurlarga yordamga ketayotgan edi. Nexo II g'alaba nashidasini surishga ham vaqti yo'qligini yaxshi tushungan. Misr-ossur qo'shini Xarran qal'asini qamal qiladi. So'ngra, u yerdagi Bobil garnizonini qilichdan o'tkazadilar. Bu orada Nexo II sobiq isyonchi Quddus shahrini qayta egallaydi hamda podsho Iosiyaning o'g'li Ioaxazni Misrga asirlikka olib ketadi.

Misrliklar Yangi Bobil podsholigi bilan raqobatlashib Falastin va Suriyani Misr ta'siriga olishga harakat qiladi. Mil. avv. 605-yilda Bobil podshosi Navoxudonosor II Misrdan Suriya va Falastinni tortib oladi. Fila Misr Yahudiyani Bobilga qarshi kurashda qo'llab turdi. Aslida Misr, kuchayib borayotgan Bobilga nisbatan Yahudiyadan qalqon hudud (bufer zona) sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Keying

qalqon Apriy Sidon shahri (Finikiya) flotini jangda yengadi. Misr yahudiylarni Bobilga gij-gijlash maqsadida (mil. avv. 586-yilda) Quddus tomon o'z qo'shinini yuboradi.

Ammo, Bobil tomonidan qat'iy choralar ko'rilgach, o'z askarlarini qaytarib chaqirib oladi. Misr davlati kuchayib ketgan Bobilga qarshi chiqa olmaydi [3. B. 41-42.].

Nexoning o'g'li Psammetixdan boshlab, Saite sulolasi qayta birlashtirilgan Misrni ikki asrdan kamroq vaqt davomida boshqargan. Miloddan avvalgi 525 yilda Fors shohi Kambiz Pelusiy jangida so'nggi sayit shohi Psammetix III ni mag'lub etdi va Misr Fors imperiyasining bir qismiga aylandi. Doro (miloddan avvalgi 522-485) kabi fors hukmdorlari mamlakatni asosan mahalliy Misr podshohlari bilan bir xil shartlar ostida boshqargan: Doro Misrning diniy kultlarini qo'llab-quvvatlagan va ibodatxonalarni qurish va tiklashni o'z zimmasiga olgan. Kserksning zolim hukmronligi (miloddan avvalgi 486-465 yillar) uning va uning vorislari davrida qo'zg'olonlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Ushbu qo'zg'olonlardan biri miloddan avvalgi 404 yilda g'alaba qozonib, Misr mustaqilligining so'nggi davrini mahalliy hukmdorlar (sulolalar 28-30) boshladi.

Miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida forslar yana Misrga hujum qilib, miloddan avvalgi 343 yilda Atakserks III davrida o'z imperiyasini qayta tikladilar, oradan o'n yil o'tib, miloddan avvalgi 332 yilda Makedoniyalik Aleksandr Fors imperiyasi qo'shinlarini mag'lub etib, Misrni bosib oldi. Iskandar vafotidan keyin Misrni Makedoniya shohlarining bir qatori boshqargan, ular Aleksandr generali Ptolemeydan boshlab, uning avlodlari bilan davom etgan. Ptolemey davridagi Misrning so'nggi hukmdori - afsonaviy Kleopatra VII - miloddan avvalgi 31 yilda Misrni Oktavian (keyinroq Avgust) qo'shinlariga taslim qildi, undan keyin olti asrlik Rim hukmronligi boshlandi, bu davrda xristianlik Rim va Rim imperiyasi viloyatlarida (shu jumladan Misrda) rasmiy dinga aylandi. Milodiy VII asrda Misrning arablar tomonidan zabt etilishi va islomning kirib kelishi qadimgi Misr madaniyatining oxirgi tashqi tomonlarini yo'q qilib, mamlakatni zamonaviy mujassamlanish sari undaydi [4. Internet sayti.].

Ushbu sulola davrida Misr o'z qudratini nisbatan oxirgi marta tiklashga muvaffaq bo'ladi. Ichki urushlar va ossurlarning talonchiligidan charchagan Misr o'z sarhadlarini qo'shni davlatlardan himoya qilish uchun kerak bo'lgan katta qo'shinni doimiy ta'minlay olmaydigan davlatga aylandi. Shuning uchun misrliklar yunonlardan askarlar yo'llay boshladilar. Fir'avn Psammetix I davridayoq yunonlar Misrga (asosan Nil deltasiga) kirib kela boshlagan edi. Hatto mashhur tarixchi Gerodot yunon savdogarlari, yo'llanma askarlarining Misrga kirib borganligi to'g'risida fikr bildirgan. Nil deltasida yunonlarning Navkratis savdo koloniyalari tuzilib, tez sur'atlarda o'sib borgan. Natijada Yunon madaniyati ta'siri kuchayadi.

Sais sulolasi fir'avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar, Misr

kohinlari va yunon savdogarlari bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yadilar. Ular Misrning nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, mustaqillikka ega bo'lishni da'vo qilib kelayotgan ko'p hokimlarga qarshi kurash olib bordilar. Fir'avnlr Uaxibra va Yaxmos II (yunoncha Amasis) lar asosan Misrning ichki iqtisodiy qudratini oshirishga intildilar. Misrliklar yunonlarga madaniyatning ayrim sohalarida taqlid qilganligi tarixdan ma'lum. O'z navbatida Misr aholisi o'rtasida norozilik kuchayib bordi [5. B. 33-34.]. Psammetix I ning o'g'li Nekau II (mil. avv. 610–595-yillar) siyosiy va harbiy islohotlar o'tkazdi. U forslar bilan bo'lgan harbiy to'qnashuvlar va boshqa harbiy kampaniyalar orqali Misrning mintaqadagi mavqeini mustahkamlashga harakat qildi.

Shuningdek, Nekau II Qizil dengiz va Nil daryosi o'rtasida kanallar qazish loyihasini amalga oshirdi. Ushbu kanal Misrning savdo aloqalarini kuchaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida amalga oshirildi. Ammo, Nekau II ning kuchayishiga qaramay, uning forslarga qarshi janglari muvaffaqiyatsiz bo'lib, Misr jiddiy yo'qotishlarga uchradi. Psammetix II (mil. avv. 595–589-yillar) hukmronligida yunonlar bilan savdo aloqalari kuchaytirildi va Misr qudratli davlat sifatida o'z mavqeini yanada mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Psammetix II shuningdek, Nubiya (Kush) ga qarshi jang olib bordi va bu yurish Misr janubida yana qo'shimcha hududlarni egallashga yordam berdi. Psammetix II ning o'limidan so'ng uning o'g'li Apriy (mil. avv. 589–570-yillar) taxtga o'tirib, Yunoniston bilan ko'proq diplomatik aloqalar o'rnatdi, ammo ichki isyonlar va chet el ta'siri kuchayishi uning davrini notinch o'tishiga sabab bo'ldi.

So'nggi podshohlik davri, ayniqsa 26-sulola davrida, qadimgi Misr madaniyati va san'ati tiklangan davr hisoblanadi. Ushbu davrda diniy an'analar va ibodatxonalar qayta jonlantirilib, qadimgi san'at uslublari qayta tiklandi. Qohira yaqinidagi Sakkara hududida Psammetix I tomonidan yodgorliklar qurildi, shuningdek, Teba shahrida ham ulkan ibodatxonalar barpo etildi. So'nggi Podshohlik davrining san'ati va me'morchiligi qadimgi Misr an'analariga asoslangan bo'lib, mahalliy ramz va an'analarni qayta kashf etishga urg'u berdi. Misr san'ati bu davrda tashqi madaniyatlar ta'siridan mustaqillikni saqlab qolishga intildi [6. B. 211-224.].

Miloddan avvalgi 525-yilda Fors shohi Kambiz II Misrni bosib olib, uni Ahamoniylar imperiyasining satraplik (viloyat) maqomiga aylantirdi. Forslar Misrning davlat boshqaruvini o'z nazoratiga olishga intilib, fir'avnlr an'anaviy hukmronligiga putur yetkazdi. Bu davrda Misrda Fors madaniyatining ta'siri kuchaydi, biroq aholi orasida qarshilik kuchayib, bir necha bor qo'zg'olonlar ro'y berdi. Ahamoniylar sulolasi hukmronligi davomida Misrning diniy va madaniy an'analari cheklovga uchradi, bu esa Misr aholisining noroziligiga sabab bo'ldi [7. B. 539-542.].

Ossuriya qulagandan keyin bobilliklar Misrga bostirib kirishdi. Qisqa fuqarolar urushidan so'ng, boshqa asosiy o'yinchi - forslarga qarshi ittifoq tuzildi. Biroq, ittifoqchilar forslarning tajovuzkor ekspansiyasini ushlab tura olmadilar va Bobil ham,

Misr ham bosib olindi. Ikki yarim ming yildan ortiq vaqt ichida Misr birinchi marta mustaqil davlat emas edi. Garchi ular alohida sulola sifatida e'tirof etilgan bo'lsalar ham (yigirma yettinchi sulola) forslar aslida mahalliy boshliqlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan rezident gubernator - Satrap orqali hukmronlik qilishgan. Yomon matbuotga qaramay, ko'plab zamonaviy hujjatlarda (masalan, Gerodotning yozuvlarida) Fors shohlari ibodatxonalar va jamoat ishlarini qurdilar, iqtisodiyotni mustahkamladilar, san'at va me'morchilikda misrliklarning ko'plab an'alariga rioya qildilar. Ko'pincha forslar ko'plab madaniy va diniy urf-odatlarini hech qanday aralashmasdan davom ettirishga ruxsat berishdan xursand bo'lganga o'xshaydi. Biroq, miloddan avvalgi 490 yilda yunonlar marafonda forslarni mag'lubiyatga uchratganlarida, xorijiy hukmdorlarning noroziligi kuchayib borayotgan qarshilikka olib keldi, ular deyarli bir asr davomida pasayishni rad etdi. Miloddan avvalgi 404 yilda mahalliy hukmdorlar koalitsiyasi forslarni mag'lub etishga muvaffaq bo'ldi va Misrni Saislik Amirtaios (Yigirma sakkizinchi sulolaning yagona hukmdori) boshqardi, undan keyin Mendesda (Yigirma to'qqizinchi sulola) joylashgan bir qator hukmdorlar hukmronlik qildilar. O'ttizinchi sulola qurilishning sezilarli darajada o'sishi bilan nisbatan tinch va farovon edi, ammo xotirjamlik qisqa umr ko'rdi. Forslar Misrdan voz kechishga tayyor emas edilar va (bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlardan keyin) miloddan avvalgi 343 yilda nazoratni qaytarib olishdi. Ularning muvaffaqiyatlarini nishonlash uchun vaqtlari kam edi, chunki Aleksandr Makedonskiy ularni miloddan avvalgi 332 yilda mag'lub etib, yunon nazorati davrini boshlab berdi [8. Internet sayti.]. Miloddan avvalgi 332-yilda Aleksandr Makedonskiy Misrni bosib oldi va bu voqea so'nggi podshohlik davrining tugashiga olib keldi. Misrni Makedoniyalik Iskandar egallab, yunon madaniyatini olib kirgan va Misrda Ptolemeylar sulolasining boshlanishiga zamin yaratgan. Aleksandr Misrda yunon madaniyati va diniy an'analari bilan qadimgi Misr madaniyatini uyg'unlashtirish siyosatini olib bordi. Bu davr Misr tarixida o'tish davri bo'lib, yunon madaniyatining Misr san'ati, dini va madaniyatiga kuchli ta'sirini ko'rsatdi [9. B. 15-32.].

So'nggi Misr hukmdorlari. yigirma oltinchi sulola; Saite (miloddan avvalgi 664-525 yillar) – Nekau Vahemibre (Necho), Vahibre Haaibre (Apries), Ahmose II Khenemibre (Amasis), Psamtik II Anxare (Psammetichus).

Yigirma yetti sulola birinchi fors davri (miloddan avvalgi 525-404 yillar) – Doro I (Setutre), Kserks, Artakserks I, Doro II, Smendes, Artakserks II.

Yigirma sakkizinchi sulola (miloddan avvalgi 404–398-yillar) – Amyrtaeus.

Yigirma to'qqizinchi sulola (miloddan avvalgi 398–380-yillar) – Nephertites, Hakor (yoki Achoris), Psammuzes.

O'ttizinchi sulola (miloddan avvalgi 380–343-yillar) – Nektanebo I, Teo, Nektabo II.

Xulosa. Misrning so‘nggi podshohlik davri (miloddan avvalgi 664–332-yillar) uning tarixidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, ushbu davr mahalliy hukmdorlar sulolalarining tiklanishi va chet el istilolariga qarshi kurashni o‘z ichiga olgan. Misr miloddan avvalgi VI asrda mustaqillikni qayta qo‘lga kiritgach, mahalliy fir‘avnlar boshchiligida o‘z hududini mustahkamlashga va madaniy an‘analarni saqlab qolishga harakat qilgan. 26-sulola davrida fir‘avn Psamtik I Misrni

birlashtirib, markaziy hokimiyatni tiklagan. Bu davrda arxitektura, san‘at va diniy e‘tiqodning qayta tiklanishi kuzatildi. Biroq, ushbu mustaqillik uzoq davom etmadi va Fors imperiyasi tomonidan yangi istilolar amalga oshirildi. Fors hukmdorlari Misrni bir necha bor zabt etgan bo‘lsa-da, mahalliy fir‘avnlar ularning hukmronligini qisqa muddatga bo‘lsa-da qayta tiklashga muvaffaq bo‘lishdi. 29 va 30-sulolalar davrida Misrning mustaqillik harakati davom etdi, ayniqsa, Nektanebo I va Nektanebo II kabi sifatida Fors istilosiga qarshi oxirgi urinishlarni amalga oshirdi, ammo mag‘lubiyatga uchragach, Fors imperiyasi Misrni yana qo‘lga oldi. Misrning ushbu mustaqillik uchun kurashlari oxir-oqibat muvaffaqiyatsiz yakunlandi va miloddan avvalgi 332-yilda Aleksandr Makedonskiy tomonidan istilo qilinishi bilan Misrda yunon davri boshlandi. Shu tarzda, Misrning so‘nggi podshohlik davri mustaqillik va xorijiy hukmronlik o‘rtasidagi murakkab davr bo‘lib, mahalliy hukmdorlarning o‘z madaniyatlarini saqlashga intilishi, xorijiy madaniy ta‘sir va harbiy istilolar bilan uyg‘unlashib ketdi. Bu davr nafaqat siyosiy jihatdan, balki madaniy jihatdan ham Misr hukmdorlar mamlakatni himoya qilishda va chet el istilolariga qarshi kurashishda katta hissa qo‘shdi. Nektanebo II so‘nggi mahalliy hukmdor sifatida Fors istilosiga qarshi oxirgi urinishlarni amalga oshirdi, ammo mag‘lubiyatga uchragach, Fors imperiyasi Misrni yana qo‘lga oldi. Misrning ushbu mustaqillik uchun kurashlari oxir-oqibat muvaffaqiyatsiz yakunlandi va miloddan avvalgi 332-yilda Aleksandr Makedonskiy tomonidan istilo qilinishi bilan Misrda

yunon davri boshlandi. Shu tarzda, Misrning so‘nggi podshohlik davri mustaqillik va xorijiy hukmronlik o‘rtasidagi murakkab davr bo‘lib, mahalliy hukmdorlarning o‘z madaniyatlarini saqlashga intilishi, xorijiy madaniy ta‘sir va harbiy istilolar bilan uyg‘unlashib ketdi. Bu davr nafaqat siyosiy jihatdan, balki madaniy jihatdan ham Misr tarixida muhim iz qoldirdi. So‘nggi podshohlik davri Misr tarixidagi an‘anaviy qadriyatlarning so‘nggi saqlanish davri bo‘lib, uning oxiri Misrning butunlay yangi bosqichga, yunon va keyinchalik rim madaniyatlari ta‘siridagi davrga o‘tganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/so-ngi-podsholik-davridamir>
2. Shaw, Ian. *The Oxford History of Ancient Egypt*. Oxford University Press, 2000, pp. 386-390.
3. D.J. Urakov, A.G. Xolliyev, S.I. Gabrielyan, R.N. Tursunov, O.A. Maxmudov,

- A.A.Rozakov, A.A. Birkuziyev, B.B. Xaynazarov, R.X. Djurayev, N. Kenjayev, D.X. Ziyayeva, G.K. Otarbayev, J.E. Turekulova. “Jahon tarixi”. Metodist nashryoti – 2023. 41-42 p
4. <https://www.history.com/topics/ancient-egypt/ancient-egypt#third-intermediate-period-c-1085-664-b-c>
5. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Birkuziyev, B.B. Xaynazarov. “Jahon Tarixi”. Innovatsiya-Ziyo – 2020. 33-34 p
6. Wilkinson, Richard H. *The Complete Temples of Ancient Egypt*. Thames & Hudson, 2000, pp. 211-224.
7. Briant, Pierre. *From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire*. Eisenbrauns, 2002, pp. 539-542.
8. <https://ancientegyptonline.co.uk/late/>
9. Bowman, Alan K. *Egypt After the Pharaohs 332 BC - AD 642: From Alexander to the Arab Conquest*. University of California Press, 1986, pp. 15-32.